



Tadqiqot.uz



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

# SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT INTEGRATSİYASINING MUAMMOLARI, YECHİMLARI HAMDA İSTİQBOLLARI

10-NOYABR  
2021

BUXORO, UZBEKISTAN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SOHA LINGVISTIKASI:  
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT  
INTEGRATSIYASINING  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI  
HAMDA ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari**

*Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil*

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**LINGUISTICS OF DIFFERENT  
FIELDS:  
PROBLEMS, SOLUTIONS AND  
PROSPECTS OF LINGUISTICS  
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**Bukhara, November 10, 2021**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО  
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:  
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ  
ЛИНГВИСТИКИ И  
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**Бухара, 10 ноября 2021 г.**

© Tadqiqot.uz

**“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.**

Buxoro davlat universiteti O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazdi.

O'zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o'zbek tili tibbiyot leksikografiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixololingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbli; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

**Mas'ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori,  
professor Abuzalova M.Q.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent G'aybullayeva N.I.**

**tibbiyt fanlari doktori (PhD),  
dotsent Ixtiyorova G.A.**

**To'plovchi va nashrga  
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva D.N.**

*Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zлari mas'uldirilar.*

**© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021**

4. Komilova X. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi. –Toshkent, 2001.
5. Скобликова Е.С.Согласование и управление в русском языке.–М.,2001.–С.: 26.
6. Виноградов В.В.Грамматика русского языка.Т.II,ч.II,ч.–М, 2005. –С.: 22.
7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbanova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo,,ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek tili  
<http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

## O‘zbek shevalalarini lingvo-geografik xaritalashtirish

**Atouollo Rakhmatovich Akhmedov\***

**Sevara Mahmud qizi Po‘latova \*\***

**10.5281/zenodo.5685062**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola arealogiyaning asosiy maqsadi sanalgan xaritalashtirish masalasidadir. Bunda xaritalashtirishning turlari va dialektologik atlaslarning na’munalari borasida fikr yuritilgan. Xaritalashtirishdagi turli usullar muayyan xaritaning maqsadiga, mazmuniga, foydalanish shakliga va boshqa sabablarga bog‘liq bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** *dialektologik atlaslar, diagramma, kartodiagramma, kartografiya, dialektografiya, anketa*

Biror til yoki dialektga xos xarakterli lingvistik xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettirgan albom yoki kitob shaklida nashr qilingan kartalar yig‘indisi dialektologik atlas sanaladi. Dialektologik atlaslar biror xalq tili va xalq tarixini, uning millat bo‘lib shakllanishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xaritalar bir necha xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin [1;45]. Masalan, harakatdagi hodisalarni ifodalovchi xaritalar. Bunda harakatdagi hodisalar alohida tasvirlash usuli sifatida xaritada ko‘rsatiladi. Masalan, tojik tilining kengayib borish harakati, singormanizmning yo‘qolib borish tezligi. Harakatdagi belgilar joylashish xarakteri bo‘yicha turlicha bo‘lishi mumkin: nuqtali, chiziqli, maydonli, yoyilgan, uzuksiz. Xaritani maqsadiga va xaritaga olinayotgan hodisaning xususiyatiga mos holda harakatdagi belgilar yordamida harakatlanayotgan hodisaning yo‘lini, harakat usulini, yo‘nalishini va ko‘chib yurish tezligini, sifatini, quvvatini ko‘rsatishi mumkin. Grafik vositalar sifatida sterelkalardan, shuningdek har xil rangdagi, sur’atdagi va kenglikdagi chiziqlardan foydalaniladi.

Xaritada biror hodisani taqsimlanishini ma’lum hududiy bo‘linish birligi ichida joylashtiriladigan va hodisani har xil hududiy birlik chegarasida jamlangan (yakuniy, umumiyl) qiymatini (miqdorini) ayrim paytda esa tarkibini yoki dinamikasini ifodalaydigan diagrammalar yordamida tasvirlash usuliga kartodiagramma deyiladi.

Kartodiagrammalarni ko‘rgazmali taqqoslash uchun, masalan hodisalarning tarqalish darajasini ko‘rsatishda foydalaniladi. Kartografiyada chiziqli diagrammalar – ustunchalar, tasmachalar va shu kabi vositalardan foydalanish

\* Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi [a.r.ahmedov@buxdu.uz](mailto:a.r.ahmedov@buxdu.uz)

\*\* Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi E-mail: [sevarahmudqizi@gmail.ru](mailto:sevarahmudqizi@gmail.ru)

qulay.

Xaritalarda kamdan-kam hollarda bir xil usul ishlatiladi. Ikkita yoki uchta va undan ko‘p usullarni birgalikda qo‘sib ishlatish, muayyan xaritaning maqsadiga, mazmuniga, foydalanish usuliga va boshqa sabablarga bog‘liq bo‘ladi.

Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan. Yevropada tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar quyidagilar: Venker va Vredelarning «Nemis tili atlasi» (1876-1926-yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan «Nemis leksikologik atlasi»; Qiperon va Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlasi» (1902-1912-yillar mobaynida yaratilgan); Yaberg va Yudning 8 jildli «Italian-Shveytsar atlasi» (1928- 1940-yillar mobaynida yaratilgan). Moskvada tuzilgan «Moskva shahridagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasi» (1957-yili nashr etilgan); «Shimoli-g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasi» (nashrga tayyorlangan) va respublikalarda nashr etilgan «Ukrayin tili xalq shevalari atlasi», «Belarus tili xalq shevalari atlasi» va boshqalar [2; 60].

O‘zbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri o‘zbek dialektologiyasi o‘zining boshlang‘ich etapi – dialektografiya bosqichini o‘tab, endi u to‘plangan boy material – baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shug‘ullanish bosqichiga o‘tdi.

O‘zbekistonda dialektologik ishlar uch yo‘nalish bo‘yicha ilmiy ish olib bormoqda. Bular: o‘rganilmagan o‘zbek shevalarini monografik tadqiq qilish, o‘zbek shevalari lug‘atini tuzish va o‘zbek tili dialektal atlasini yaratishdir.

O‘zbek tili shevalarini monografik o‘rganish sohasida anchagina ishlar qilindi. Bunday kuzatishlarning natijalari maxsus monografiyalar, maqolalar va to‘plamlarda e’lon qilindi. Ayrim tekshirishlarda keltirilgan leksik materiallar va ekspeditsiyalarda to‘plangan materiallar asosida o‘zbek shevalarining lug‘ati tayyorlandi va nashr etildi.

O‘zbek shevalarini lingvistik geografiya metodi bilan o‘rganish ishi 1944-yilda boshlangan edi. Prof. A.K.Borovkov o‘zbek tili shevalari atlasini yaratish maqsadida «O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol - javoblar» anketasini tuzdi. Shu anketa asosida 1945-1950-yillar mobaynida Farg‘ona vodiysi shevalaridan materiallar to‘plandi. Lekin o’sha vaqtarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo‘qligi bu materiallarni ishlab chiqish va kartalarga ko‘chirish imkonini bermadi. Oradan 20 yil o‘tgandan keyin 1965-yildan boshlab, o‘zbek shevalari xususiyatlarini kartalashtirish ishi yana kun tartibiga qo‘yildi va dialektal materiallar to‘plana boshlandi.

O‘zbek dialektlarini kartalashtirish ishini prof. V. V. Reshetov boshlab berdi. U Toshkent viloyatining bir qismini lingvistik tekshirdi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatic farqlarni kartaga ko‘chirdi. O‘zbek dialektologiyasida birinchi bo‘lib o‘zbek qurama shevalarining 49 ta lingvistik kartasini tuzdi.

M. Mirzayev 1955-yilda «Buxoro viloyatidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa», professor A.Aliyev 1964-yilda «Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa», 1976-yilda professor A. G‘ulomov, A. Aliyev, K. Nazarovlar tomonidan «O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha

material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma» yaratdilar [3; 24].

O‘zbek shevalarini lingo-geografik metod asosida ilmiy-tadqiq qilishda A.Shermatov samarali hissa qo‘shti. U «Qashqadaryo guruh shevalari kartasi» ni tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan o‘z yakunini topdi.

Keyingi yillarda Orol bo‘yi o‘zbek shevalari, janubiy va shimoliy Tojikistonda yashovchi o‘zbek shevalari, janubiy Qozog‘istondagi O‘zbek shevalarining lingvistik kartasi ustida qizg‘in ish olib borildi.

O‘zbek tili dialektologik atlasini tuzish o‘zbek adabiy tili imlo va talaffuz normalarini fonetik tuzilishi sistemasi, grammatik qurilishi leksik tarkibini normallashtirishda aniqliklar kiritish uchun; o‘zbek shevalarining mavjud tasniflarini to‘ldirish, mukammallashtirish; adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta’siri natijasida adabiy tilning o‘zbek shevalararo normallasha borishini tezlashtiradi.

O‘zbek dialektologlari o‘z milliy tillari atlasini yaratish bilan bir qatorda, qardosh dialektologlar bilan birga «Turkiy tillar atlasi»ni ham tuzishni maqsad qilganlar. Bunday atlasni tuzish akademik V.M. Jirmunskiy tashabbusi bilan boshlangan edi.

Uning so‘roqligi va programmasi 1960-70-yillarda bir necha bor muhokama qilinib, tasdiqlandi.

Har 3-4 yilda turkiy tillar atlasi yaratish bo‘yicha Xalqaro miqiyosida konferensiyalar, yig‘inlar o‘tkazilib turilgan.

Umumturkiy lingvistik atlasing yaratilishi, turkiy xalqlar tili haqida yangi ma’lumotlar beradi, qardosh tillarning taraqqiyoti fikrimizni kengaytiradi, unga ilmiy nuqtayi nazardan aniqliklar kiritadi.

Ozarbayjon Fanlar akademiyasining akademigi prof. M.Sh.Shiraleyev ozarbayjon tili sharqiy sheva va dialektlar gruppasining dialektologik atlasing, G.Bakinova qirg‘iz shevalarining atlasing, X.Doniyorov, R.Qo‘ng‘urovlar Samarqand viloyati shevalarining lingvistik atlasing tuzishga kirishganlar.

O‘zbek xalq shevalari atlasi hozirgi zamon o‘zbek tili shevalarining rang-barang xususiyatlarini kartalarda ifodalaydi. Lingvistik kartalarda ko‘rsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi, tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti va o‘zbek milliy tilining kelib chiqishi kabi masalalarni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, atlas materiallari tarixchilar, etnograflar uchun ham foydalidir.

O‘zbek tili dialektologik atlasi quyidagi vazifa-maqsadlarni ko‘zda tutadi:

1. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili ma’lum shevalarga tayanadi. U o‘zining imlo va talaffuz normalarini, shuningdek, fonetik sistemasi, grammatik tuzilishi, leksik sostavini normalashtirishda, asosan, Toshkent-Farg‘ona til shevalariga asoslansa ham, ayrim hollarda bu shevalar materiali adabiy til normalariga mos kelmaydi. Dialektologik atlasing obyektiv natijalari (xulosalari) bu masalaga to‘liq aniqlik kiritadi. Haqiqatan ham, shevalarga xos dialektal xususiyatlarning butun o‘zbek tili hududida tarqalishi va uning chegaralarini faqat dialektologik atlas zaminidagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

2. Dialektologik atlas materiallari o‘zbek shevalarining mavjud tasniflarini to‘ldirish, mukammallashtirishga, ularga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shuningdek, o‘zbek shevalarining paydo bo‘lishida qatnashgan turkiy va turkiy

bo‘lmaqan etnik gruppalarining o‘zaro aloqalari natijasida ro‘y bergan juda murakkab etnolingvistik taraqqiyot protsessini ham belgilab beradi.

3. Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta’siri o‘zbek xalq shevalarida til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtirdi. Chunki o‘zbek xalqining ekonomikasi va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o‘zbek adabiy tilining qo‘llanish doirasi kengaydi. Adabiy tilning barcha o‘zbek shevalararo normalasha borishi asta-sekin dialektal nutqni qisib, og‘zaki - so‘zlashuv nutq doirasiga ham kirib bordi. O‘tmishda genetik jihatdan turlicha bo‘lgan o‘zbek xalq shevalarining birlashishi uchun xalqning ekonomik va madaniy qoloqligi to‘sinqlik qilar edi. Xonliklar va ularning hududiy chegaralanganligi shevalararo farqlarning keskin saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi. Ayrim til faktlarining qisman aralashuvi va ular orasidagi o‘zaro farqning tekislasha borishi butun o‘zbek tili tarqalgan hududda bo‘lmay, balki bir-biriga yaqin, qo‘shni shevalarning o‘zaro munosabati natijasidagina sodir bo‘lgan edi. Hozir dialektal xususiyatlarning yo‘qolib borish jarayoni faqat yondosh shevalarning o‘zaro munosabati natijasidagina emas, balki maktab, vaqtli matbuot, radio va boshqalar orqali adabiy tilning kundalik va atroficha ta’siri orqasida ham ro‘y bermoqda.

Ma’lumki, o‘zbek tili turkiy tillar orasida turli xil sheva va dialektlarga boyligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun bu tilni areal jihatdan o‘rganish va uning atlasini tuzish ishini biroz og‘irlashtiradi. O‘zbek tilini areal o‘rganish sheva va dialektlarga xos muhim xususiyatlarni – izoglossalarni aniq qayd etish har bir dialektologlarga ham yetarlicha qiyinchilik tug‘diradi. Tilni areal jihatdan o‘rganish, avvalo, bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Birinchidan hududlar bo‘yicha sheva elementlari aniqlab chiqiladi (bu borada bir qator ishlar qilinib, ushbu soha bo‘yicha qilinadigan ishlar yakunlangan desak ham bo‘ladi), ikkinchidan o‘zbek tilining dialektologik lug‘ati tuziladi shundan keyin biz o‘z atlasimizni tuzishimiz mumkin.

Hozirgi paytda Xorazm shevalari kartasini (prof. F.A.Abdullayev), Buxoro gruppa shevalari kartasini (prof. M.Mirzayev), Namangan gruppa shevalar kartasini (A.Aliyev), Qashqadaryo gruppa shevalari kartasini (A.Shermatov) tuzish ishlari boshlab qo‘yilgan. Bugungi kunda ushbu ishlarni yakunlash bosqichi biz yoshlarning qo‘lidadir.

### **Adabiyotlar:**

1. К.А. Салихев. Картография. – М.: Вышая школа, 1982.–Б. 45-104.
2. Муродова Н Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент: Фан, 2007. – 193 б.
3. Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1981.– 58 б.
4. Юлдашева Дилором Нигматовна, Назарова Дилноза Фуломовна. Ўзбек тили лугат бойлигининг мустақиллик йилларидағи тараққиёти ва лексикографик муаммолар. – «Сўз санъати» халқаро журнали (ISSN: 2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 www.tadqiqot.uz) –2021, Том 4 № 3 (2021). DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-3> – Б. 212-219.
5. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111> Tilshunoslikka kirish
6. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110> Hozirgi o‘zbek tili

## Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)

Adizova Nilufar Istamovna \*

10.5281/zenodo.5685064

**Annotatsiya.** Har bir til ma’lum bir xalqning azaliy qadriyatlari, an’analari, udumlari, tarixi bilan bog‘liq muhim jihatlarni-mentalitetini mujassam etishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma’lum bir millatda madaniyat belgisi deb qaraladigan ifoda birliklari boshqasi uchun oddiygina muloqot vositasi tarzida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada muayyan maqsadlarda qo‘llanuvchi lingvokulturemalar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini, millat qiyofasini namoyon etuvchi muhim vosita ekanligi, jumladan, muqobilsiz leksikaning o‘zbek millati mentalitetini aks ettiruvchi til birliklari sifatidagi muhim roli Erkin Vohidov dostonlari misolida tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** *ifoda imkoniyatlari, milliy mentalitet, assotsiatsiya, ma’naviy qiyofa, muqobilsiz leksika, millat ruhi*

Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda muhim sohalardan biri sifatida taraqqiy etmoqda. Uning obyekti madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi jarayonida, lisoniy va nutqiy birliklarning madaniyat belgisi sifatida tutashgan nuqtasida yuzaga chiqadi. U tilni madaniyat fenomeni, tashuvchisi sifatida o‘rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi kishilar yaratadi. Muayyan bir millatda madaniyat belgisi deb qaraladigan ifoda birliklari boshqasi uchun oddiygina muloqot vositasi tarzida namoyon bo‘ladi. Zero, har bir til ma’lum bir xalqning azaliy qadriyatlari, an’analari, udumlari, tarixi bilan bog‘liq muhim jihatlarni-mentalitetini mujassam etishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, “...har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmushtarzi, ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan, bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu ma’noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz.

Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma’no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo...” [1,8]. Haqiqatan ham, har qanday lisoniy birlik, nutqiy ifodalar muayyan bir millatga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifoda etadi. Lingvistik madaniyat ob’yekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika kabi qator fundamental fanlar kesishmasida o‘rganiladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda muayyan maqsadlarda qo‘llanuvchi lingvokulturemalar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini ifoda etuvchi, millat qiyofasini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida qo‘llanadi. Ular *muqobilsiz leksik birliklar, lakunalar, mifologema, arxiteplar, paremiologik*

\* Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

# МУНДАРИЖА

<b>Rasmiy ochilish. Tabriklar</b>		
<b>Hamidov O.H.</b>	<i>Rasmiy ochilish</i>	<b>6</b>
<b>Inoyatov A.Sh.</b>	<i>Tibbiyat va til mushtarakligi</i>	<b>8</b>
<b>Daminov M.I.</b>	<i>Til va madaniyat</i>	<b>9</b>
<b>Qahhorov O.S.</b>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	<b>10</b>
<b>Xuseynova A.A.</b>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	<b>11</b>
<b>Aslonova E.S.</b>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	<b>12</b>
<b>Yalpi majlis ma’ruzaları</b>		
<b>Mengliyev B.R.</b>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	<b>15</b>
<b>Abuzalova M.Q.</b>	<i>Lingvistika va tibbiyat hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>17</b>
<b>Чудакова В.П.</b>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	<b>22</b>
<b>Ixtiyarova G.A.</b>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	<b>25</b>
<b>Myratbek B.Q.</b>	<i>Professor Q.Jybanov уеңбектериндеgi сөзтапты negizderi (Q.Jybanov сөзтаптынындаг ‘ы leksikologiya məseleleri)</i>	<b>27</b>
<b>Adilova S.A.</b>	<i>Tilshunoslik va tibbiyat integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	<b>36</b>
<b>Rajabov D.Z.</b>	<i>O’zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	<b>40</b>
<b>1-sho‘ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari</b>		
<b>Ahmedov B.Y.</b>	<i>Rus va o’zbek tillarida so’zlarning o’zaro tobe bog’lanishi: boshqaruvin kategoriyasi</i>	<b>42</b>
<b>Akhmedov A.R. Po’latova S.M.</b>	<i>O’zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	<b>46</b>
<b>Adizova N.I.</b>	<i>Leksik birliklarning milliy o’zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	<b>50</b>
<b>Elova D.Q.</b>	<i>O’zbek tili milliy korpusi uchun so’zlashuv uslubiga xos so’zlarni teglash masalasiq oid</i>	<b>55</b>
<b>Fayazova D.S.</b>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	<b>61</b>
<b>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</b>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	<b>65</b>
<b>Jo‘rayeva D.R. Qo’shayeva N.E.</b>	<i>O‘quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	<b>68</b>
<b>Kurbanov A.M.</b>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	<b>71</b>
<b>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</b>	<i>Qirg’iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	<b>75</b>
<b>Muxtorov E.M.</b>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o’rnni</i>	<b>79</b>
<b>Мұратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</b>	<i>Этнолингвистика – этностық болмыстық ұлттық тіл арқылы танып білу(Аймақтық лексика негізінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	<b>84</b>
<b>Orifjonova F. Orifjonova M.</b>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	<b>88</b>

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	<b>93</b>
<i>Saduaqas N.A. Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi дыбыс сәйкестиги туралы</i>	<b>97</b>
<i>Sayfullayeva R.R. Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma’naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	<b>102</b>
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	<b>104</b>
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o ‘quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	<b>111</b>
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	<b>116</b>
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	<b>121</b>
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	<b>125</b>
<b>2-sho‘ba. O‘zbek tili tibbiyat leksikografiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida</b>		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So‘z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	<b>131</b>
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	<b>136</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliliklarning elektron lug`atlari xususida</i>	<b>139</b>
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	<b>141</b>
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	<b>146</b>
<i>To’rayeva Sh.</i>	<i>So‘z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	<b>150</b>
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	<b>153</b>
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining tibbiyotda qo‘llanilishi</i>	<b>157</b>
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektlı birikmalarining vogelanishi</i>	<b>161</b>
<i>Yuldasheva D.N. Chullieva G.T.</i>	<i>Тишина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	<b>164</b>
<i>Navro`zova M.G.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	<b>172</b>
<b>3-sho‘ba. Tibbiyat ta’limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbliji</b>		
<i>Ahmadova U.Sh. Bozorova G.Z. Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyat sohasida perifrazalar</i>	<b>174</b>
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқагали Мақатаев әңгімелеріндегі психологиязм Psychologism in the stories of Mukagali Makataev</i>	<b>179</b>
<i>Adizova Nigora Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	<b>182</b>
<i>Gafurova N.T. Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	<b>185</b>
<i>G‘aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	<b>190</b>
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiblar haqida</i>	<b>195</b>
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	<b>200</b>
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O‘zbek xalq maqollarida tibbiy birliliklarning qo‘llanilishi</i>	<b>204</b>
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	<b>207</b>
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	<b>211</b>
<i>Xalikova M.X. Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyat ilmiga bag‘ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarining lingvistik tahlili</i>	<b>214</b>
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	<b>218</b>

	<i>qo'llanilishi</i>	
<b>4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi</b>		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	<b>222</b>
<i>Kaliev E.M.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	<b>228</b>
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	<b>232</b>
<b>5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi</b>		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	<b>237</b>
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyatda qo'llanilishi</i>	<b>241</b>
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	<b>245</b>
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	<b>248</b>